



Tadqiqot **uz**

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCES.UZ

**31 ЙУЛ
№30**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 30-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
10-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
30-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-10**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
30-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-10**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 30-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Daljanova Tazagul Erjanovna	
O'QITUVCHINING KREATIVLIK MAHORATI	7
2. Orinbaeva Erkinay Quwanishbay qizi	
XX ÂSIRDIN II YARIMINDAĞI QARAQALPAQ MUZIKA MÂDENIYATININ RAWAJLANIWI HÂM ONDAĞI OQIW ORINLARININ TUTQAN ORNI.....	9
3. Jumamuratova Venera Ajimuratovna	
TURIZMDA INNOVATSION FAOLIYATNING ASOSIY YO'NALISHLARI	11
4. Sayidova Gulnoza Utkirovna, Maxmudova Madinabonu Latifovna	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	13
5. Jumaniyozova To'tijon Madaminovna, Bobojonova Tojigul Xudayberganovna	
STEAM YONDASHUVINING TA'LIM VA TA'LIMGA BO'LGAN QARASHIMIZNI O'ZGARTIRISHDAGI AHAMIYATI.	15



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

О'QITUVCHINING KREATIVLIK MAHORATI

Daljanova Tazagul Erjanovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Qo'ng'irot tumani 5-sonli mактабнинг

ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'qituvchining kreativlik mahoratiga ko'ra dars jarayoni qanday usulda olib borilishi uni innovatsion metod tanlash mahorati, bunda maqsad tanlanganligi va ta'lif sifati yuqori bo'lishi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotni yetkaza olish qobiliyati, zamon talabiga binoan metodlarni tanlash kerakligi haqida aytilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, o'quvchi, dars, kreativlik, innovatsion texnologiya, tezkor fikrlash

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda rivojlanishi barcha turdag'i ta'lif muassasalarida ta'lif-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu, o'z o'rniда, har bir tizim xodimi, ayniqsa maktab o'qituvchilarini zimmasiga yanada yuksak ma'suliyat va vazifalarni yuklaydi. Shunday ekan, biz pedagoglar vijdonan mehnat qilib, yorug' kelajagimiz oldidagi mas'uliyatni teran his etib, ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborga munosib javob berishimiz lozim.

Dars jarayonida kreativlik eng muhim mahoratdir. O'qituvchining kreativlik mahoratiga ko'ra dars jarayoni qanday usulda olib borilishi uni innovatsion metod tanlash mahoratini ham ko'zda tutadi.

Metod tanlashdan oldin bolaning yoshi, nechanchi sinfda o'qishi ham inobatga olinadi. Masalan, boshlag'ich sinflarda doskaga turli rasmlarni ilib, ulardan aktiv mashqlarda foydalaniladi. Yuqori sinflarda esa asosan kompyuterdan foydalanilib, audio va video lavhalar orqali dars jarayoni olib boriladi. Ammo bu kichik sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanib bo'lmaydi degani emas.

Dars jarayonining samarali o'tishi to'g'ri innovatsion metodni tanlanganligiga ham chambarchas bog'liq hisoblanadi. Bunda o'qituvchi quyidagi parametrlarga ega bo'lishi lozim:

1. Maqsad tanlanganligi va ta'lif sifati yuqori bo'lishi;
2. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotni yetkaza olish qobiliyati;
3. Zamon talabiga binoan metodlarni tanlash;
4. Chet tili o'rgatishda individual yondashuv;

Ushbu parametrlarga ega bo'lganhar qanday pedagog dars jarayonini samarali

o'tishini ta'minlaydi. Bundan tashqari o'qituvchining eng muhim vazifasi bu o'quvchilarini bor e'tiborini darsga qarata olishi kerak. Buning uchun bir necha usullar mayjud bo'lganholda bularning eng keng tarqalgan usuli sifatida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, «o'yinli ta'lif»ni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ma'lumki, o'yin boshlang'ich sinf o'quvchisining asosiy faoliyat turlaridan biridir.

Bola gapira boshlashdan avval kattalar nutqini eshita borib, passiv ravishda material to'plashininazarda tutib, ingliz tilini o'qitishda reproduktiv ish formasidan oldin reseptiv ish formalari amalga oshirilishi, ya'nigapirishdan oldin tinglash, yozishdan oldin esa o'qish kerak, degan xulosa chiqaradi. U o'znuqtai nazarini qiyinchiliklarni hisobga olish va og'zaki nutq yozma nutqdan farq qilganidek, bir ko'nikmani boshqasidan sinchiklab ajratish prinsiplari bilan mustahkamlaydi

Didaktik o'yinlar, ularni tashkillashtirish uslubi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. O'yin jarayonida o'quvchi o'zini shaxs sifatida namoyon qiladi, uning ijtimoiylashuvi jadallahashi. Bunda bilish jarayonini jismoniy mashq bilan uyg'unlashtiruvchi o'yinlar ta'lif jarayonini bola



uchun qiziqarli bo'lishi, unda diqqatning rivojlanishi, sog'lom bo'lishiga xizmat qiladi. Intellektual o'yinlar bolalarda mantiqiy fikrlash, xotira, ijodkorlikni rivojlantiradi. Aksariyat o'qituvchilar o'quv darslarini loyihalashtirishda, aynan vazifa ishlab chiqish jarayonida qiyinchilikka uchraydi. Haqiqatdan ham, o'quvchilarni faollashtiruvchi, ularning diqqatini turg'un bo'lishini ta'minlovchi, ijodiy xarakterga ega bo'lgan vazifani ishlab chiqish oson ish emas. Bu o'qituvchining o'zidan tezkor fikrlashni, ijodkorlikni, chuqur pedagogik, psixologik bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. O'quvchilarni tashabbuskor, ilg'or g'oyalarni ilgari suradigan mustaqil fikirlari qilib tarbiyalashda ularni qiziqishlari bo'yicha yo'naltirish o'z samarasini beradi. Buning uchun pedagog darslari davomida o'quvchilarning qobiliyatlaridan kelib chiqib, ularning turli togaraklarga yo'naltira borishi lozim.

Bu fikrlardan xulosa qilinadigan bo'lsa, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvning ahamiyati, o'quv uslubiy adabiyotlar tarkibi, tuzilishi va mazmunini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish muhim omil sifatida qaralishi lozim deb hisoblaymiz. Zero, ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarни bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г. Палмер. Современного обучения иностранным языкам. — ЯИШ. 2001, – с. 22.
2. Даминова М., Адамбекова Т. Ўйин машғулотлари. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 966. 113



**XX АСИРДИН II YARIMINDAGI QARAQALPAQ MUZIKA MÄDENIYATININ
RAWAJLANIWI HÄM ONDAĞI OQIW ORINLARININ TUTQAN ORNI**

Orinbaeva Erkinay Quwanishbay qizi
A'jiniyaz atindag'i NMPI muzika ta'lim bag'dari 4 kurs talabasi

XX asirdin' ekinshi yarimindagI qaraqalpaq muzika madeniyatinin' rawajlaniw basqishlari bir neshe da'wirlerdi o'z ishine aladi. Bular arasindagI en' awir keshken da'wir uris jillari boldi. Xaliqtin' birden bir arziw ham maqseti dushpan ustinen jeniske erisip azat ham parawan turmis keshiriw edi. Ma'deniyat tarawinin' da xaliq azatligi jolindagi xizmetleri ulken orindi iyeleydi. Urista jenip shig'wlari ushin ma'deniyat tarawi xizmetkerleri askerlerdi ham ruwxiy, ham materialliq jaqtan qollap quwatlawda muzika tarawindagi barliq janirlarinin' repertuarlari uris temasina qartilgan ruwxlandiriwshi shigarmalar menen toli boldi. Qaraqalpaq xaliq muzikasinin' rawajlaniwinda Kiev mamlaketlik konservatoryasinin' professori kompaziciya boyinsha pedagog ham kompozitor G.I. Komponeectin' islegen pidayı isleri muzika madeniyatinin' rawajlaniwinda ozinin' salmaqli ulesin qosqan. Qaraqalpaq muzikasinin' milliy koloriti, ladliq qurilislari ham melodiyaliq bayliqlari kompozitorda ulken qizig'iwshiliq tuwdirdi. Ol belgili baqsi-jiraw sazendelerden: Juman, Japaq, Esjan, Qiyan, Aytjan, Qarajan ham qosiqshi A.Shamuratovdan 100 den aslam xaliq namalarin jazip aldi. Qaraqalpaq muzika folklori teni joq biyaha gaziyne ekenligi Komponeec tuisinip oni jiynaw,jazip aliw ,notalastiriw hamde izerlew jumislarinda ayanbay miynet etken. Solardin' ishinde "Yagli bahar", "NedagI dos" qaraqalpaq namalarin fortepiano ushin kop dawisli etip qayta islep shigadi.

"Muxalles" duwtarshilar ansamblı. Genjebay Tilewmuratov atindagi "Muxalles" duwtarshilar ansamblı Özbekistan Respublikasi Madeniyat ministirligi korkem jamaatler birlespesi quramindagi jamaat bolip esaplanadi. Ansambl 1976-jilda Qaraqalpaq xaliq baqsisi Berdaq atindagi mamlaketlik siyliqtin laureati, ustaz G.Tilewmuratov tarepinen Qaraqalpaqstan teleradio kompaniyasi qasinan sholkemlestirildi ham usi ansambldin daslepki qurami 5 sázende ham baqsidan ibarat bolip, baqsilardan G.Tilewmuratov, G.Baylepesov, Q.Dosjanov, girjekshi K.Tinibaev ham O.Asanovlar boldi.

Songi jillari ansambl quramindagi sazende baqsilar sani 12-15-18 ge deyin keneydi. 1997-jili baqsi G.Tilewmuratov qaytis bolgan son 1998-jil mart ayinda Özbekistan xaliq baqsisi G.Otemuratov ansambldin korkemlik jaqtan basshisi etip tayinlandi. 2007-jil fevral ayında "Muxalles" ansamblı ustaz baqsi G.Tilewmuratov ati berildi. Ansambldin tiykargI maqseti qaraqalpaq xalqini ásirler dawaminda qaliplesken ham áwlattan- áwlatqa miyras bolip kiyatirgan xaliq döretiwshilik körnisleri qaraqalpaq milliy muzikasi dasturiy qosiq atqariwshiligi arqali xalqimiz jas áwlat aninda biybaxa altın miyrasimizga tereh hürmet ham häwes sezimlerin qaliplestiriw olarda milliy madeniyatimiz ham qadiryatimizdan

Maqtaniw sezimlerin asiriwdan ibarat. Garesizligimiz sharapati menen 1992-jili Nokis korkem óner bilim jurtinda 'Milliy muzika' bolumi ashildi ham korkem ónerge qizig'iwshi kóplegen jaslar oqiwga qabil etildi, usilardin esabinan ansambl jil sayin jaña talantli jaslar menen toliqtirilip barilmaqta. Bügingi kunde 'Muxalles' ansamblı televedeniye radio esittiriwlerinde kündelikli turde óz döretiwshilikleri menen qatnasip kelmekte. Ansambl óz iskerligi dawaminda Qaraqalpaqstan Respublikasiniñ madeniyat ham korkem óner künlerinin Bashqurtstan, Dagistan, Tatarstan Respublikalarinda ham Tashkent qalasinda, Xorezm walayatinda ótkerilgen madeniyat künleriniñ turaqli qatnasiwshisi bolip kelmekte. 2015-jildan baslap 'Muxalles' ansamblinin korkem basshisi lawaziminda Jalgas Reymov islep häzirgi kunde onin quraminda 14 sázende ham baqsilar döretiwshilik etip kelmekte. Ajiniyaz atindagi Nokis mamlaketlik pedagogika institutinda "Muzikali tálım" kafedrasi daslep 1991-jili "Muzikaliq tárbiya" kafedrasi bolip ashildi. Bul kafedraniñ ashiliwina Berdaq atindagi siyliqtin lawreati, kompozitor S.Palwanov tiykar saldi, sol waqtleri S.Medetov, d.Aisina isledi. Son kafedra üsh bağdarga bölünip olarga Qaraqalpaqstaniga xizmet körsetken korkem óner gayratkeri, Özbekistan xalq bilimlendiriw ağlesi, belgili kompozitor, professor G. Amaniyazov, Qaraqalpaqstaniga xizmet körsetken korkem óner gayratkeri, Özbekistan xalq bilinlendirirw ağlesi K.Asqarov, Özbekistan ham Qaraqalpaqstan xaliq bilimlendiriw ağlesi, docent I.Jumaniyazovlar basqarip oqitiwshilardan T.Eshbaev, T.Düsenova, f.i.k A.Saburova t.i.k G.Xojametova t.i.k P.Palwaniyazov, D.Sultaniyazova, L.Qayniyazova, t.i.k G.Ulfetova, G.Urazbaeva, N.Musaev, G.Eshbaeva, A. Allanov, B.Qalmenov, F.Sultanova



házirgi waqitta Özbekistan hám Qaraqalpaqstan xaliq bilimlendiriw ağları docent S.Tájetdinova basqarip, oqitiwshilardan docent D.Allanazarov, M.Berdibekov p.i.k S.Romanova S.Kenjebaeva, Özbekistan Respublikasına xizmet körsetken artist, Özbekistan xaliq bilimlendiriw ağları A.Nadirovalar tálım tárbiya berip kelmekte.

1999-jili Berdaq atındagı QMU de "Muzikaliq tálım" qániygeligi boyinsha bakalavr tálım bağdarının ashiliwi joqarı maǵluwmatlı qániygeler tayarlawda áhmiyetli basqish boldi. Bul tarawda talantlı muzika iqlasbentlerin tárbiyalap shıgariwda Özbekistan hám Qaraqalpaqstan Respublikasına xizmet körsetken kórkem öner gayratkeri Q.Záretdinov, Qaraqalpaqstan xaliq artisti T.Qurbanov, Özbekistan, Qazaqstan hám Qaraqalpaqstan Respublikalarına xizmet körsetken artist R.Qutekeeva Qaraqalpaqstanǵa xizmet körsetken artist T.Xojanazarov, G.Kamalovalar jaslarga Muzika páninen sabaq berdi. Garesizlik jıllarında Muzikaliq tálım qániygeligi bağdarının professor-oqitiwshiları "Hürliman" ansambli menen birgelikte hár jili ótkerilip atırgan "Jalgızań, muqaddes Watan!", "Özbekistan- Watanım menin" qosıqlar tańlawına qatnasıp, joqarı oqiw orınları arasında jeńimpaz bolip, respublikalıq kölemde 2 márte (2004,2010-jıllarda) siyli orınlardi aliwǵa miyassar boldi. Universitettiń talabalarınan düzilgen "Miyras" folklor etnografiyalıq ansambli 2003-jili Samarqand qalasında "Sharq taranaları" xalq aralıq muzika festivalına qatnasıp, "Ofarin" siyligin aliwǵa eristi.

Özbekistan mámlekетlik kórkem öner hám mádeniyat instituti Nökis filiali. Özbekistan Respublikasınıń Prezidentiniń 2008-jıl 28-apreldegi Пк- 845 sanlı qararında "Özbekistan mámlekетlik kórkem öner institutiniń Nökis filiali shólkemlestirildi. Dáslepki jılları "Social – gumanitar hám kórkem öner taniw" kafedraşı 25 oqiwshi menen ashılıp oni Özbekistanga xizmet körsetken artist O.Qosimbetov basqarip, Özbekistan xalq artisti P.Mádreyev, Özbekistanda xizmet körsetken artist M.Ismaelova, dramaturg J.Xojanov, M.Xojanova, B.Otarbaev siyaqli oqitiwshilar menen jumis basladı. Özbekistan Respublikası Prezidentiniń 2012-jili 4-iyundagi ПК- 1771 – sanlı qararı tiykarında "Özbekistan mámlekетlik kórkem öner hám mádeniyat instituti" Nökis filiali bolip qayta shólkemlestirildi.

Házirgi kunde bul joqarı oqiw orınlarında bir qansha jas talant iyeleri jetilisip shıqpaqtı olardan atap aytqanda Ajiniyaz atındagi NMPI Pedagogika fakulteti Muzika tálım bağdırı talabalari Adilbek Baxtibaev 2019-Nihol siyliği laureate boldi. Dinara Nuratdinova kóplegen Xalq aralıq tańlawlar jeńimpazi 2019-jili TURKIYA mámlekетiniń Ankara qalasında ótkerilgen muzika festivalında Diplom hám Sertifikat penen siyliqlandi. 2019-jıl Polsha Respublikasınıń Lots qalasında "ЗОЛОТОЯ ЛОТКА" folklor festivalında Vokal jónelisi boyinsha GRAN PRI saz jónelisi boyinsha "ЗОЛОТОЯ ЛОТКА" siyliji jeńimpazi, "Zulfiya" atındagi Mámlekетlik siyliği laureate boliwǵa miyassar boldi. Bul jánnet makán bilim jurtında bir qansha jas talant iyeleri tálım alip kelmekte.

Paydalanylǵan ádebiyatlar

1. Adambaeva .T Qaraqalpaq sovet muzikasınıń tariyxi. Nökis "Qaraqalpaqstan" 1985-jıl
2. QMU gáresizlik jıllarında. Tashkent 2011-jıld



TURIZMDA INNOVATSION FAOLIYATNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Jumamuratova Venera Ajimuratovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar
2-sonli kasb-hunar maktabi oquv amaliyoti ustasi

Annotatsiya: Maqlada mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini boshqarish, hozirgi kunda mehmonxona industriyasi mamlakatlar xo'jaligining qudratli tizimi va turizm iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib borishi, mehmonxona xizmatlari qator o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularni bilish va shu asosida xizmat ko'rsatishni tashkil etish va boshqarish mehmonxonalar xizmati sifati va samaradorligi hamda daromadlarini oshirishga imkon yaratishi haqida aytilgan.

Kalit so'zlar: Mehmonxona, turizm, iqtisodiyot, mehmonxona xizmatlari, mehmon

Hozirgi jamiyatda innovatsiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish zarurati nafaqat g'arbiy mamlakatlar vakillari tomonidan yaxshiroq qabul qilinmoqda, balki O'zbekistonda ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga keng jalb qilinmoqda. Jahon iqtisodiyotida turizm eng serdaromad sohalardan biriga aylandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 2 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishni ta'minlash, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishda muhim omil bo'lmoqda. Farmonda belgilab berilgan maqsadli vazifalar hamda ustuvor yo'nalishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi.

Turizm yo'nalishlari asosan tarixiy-rekreatsion, tarixiy-madaniy meros ob'ektlari, sog'lomlashdirish turizmi elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'nalishlardir. Turizmning boshqa yo'nalishlarini ham rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekistonning xorijiy davlatlarda mavqeini yanada oshib borishiga, qo'shimcha ish o'rinalarini yaratilishiga, xorijiy valyutalarni kirib kelishiga, yalpi ichki mahsulotda, davlat byudjetining daromadlar qismida turizmning ulushini oshib borishiga va bir qator qulayliklarni yaratilishiga olib keladi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, respublikamizda faoliyat olib borayotgan turizm xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashgan kompaniya va firmalarni strategik boshqarishning umumiy tizimida innovatsion va moliyaviy-investitsion majmualar, marketing tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir.

Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini boshqarish, hozirgi kunda mehmonxona industriyasi mamlakatlar xo'jaligining qudratli tizimi va turizm iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Mehmonxona xizmatlari qator o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularni bilish va shu asosida xizmat ko'rsatishni tashkil etish va boshqarish mehmonxonalar xizmati sifati va samaradorligi hamda daromadlarini oshirishga imkon beradi. Bozorning mehmonxona xizmatlari bilan tobora ko'proq to'ldirilishi mehmonxona xizmatlari va tovarlarini ma'lum kategoriyadagi iste'molchilarga muvaffaqiyatlil sotish maqsadlarida xizmatlarni yanada batafsilroq ixtisoslashdirishni (segmentatsiyalashni) amalga oshirish zaruratin keltirib chiqardi. SHu munosabat bilan savdo va kongress mehmonxonalariga talab kuchaydi, ilgari ahamiyati pasayib ketgan ko'plab ommabop kurortlar qayta tiklana boshladidi. Hozirga qadar, mehmonxonalarning ixtisoslashishi (mehmonxona xizmatlari bozorining segmentatsiyasi), kichik mehmonxonalar va hashamatli, juda katta (gigant) mehmonxonalar, shuningdek odatdagidan boshqacha joylarda joylashgan go'zal va g'aroyib, betakror mehmonxonalar sonining oshishi tendentsiyasi saqlanib qolmoqda. Dunyoning turli mamlakatlarida o'zining alohida ko'rsatkichlari bo'yicha ajralib turadigan ajoyib va g'aroyib mehmonxonalar barpo etilgan bo'lib, ular turli kategoriyalardagi mehmonlarni o'ziga jalb etadi.

Dunyoda mehmonxona xo'jaligi sohasida integratsiya jarayonlari keng miqyosda amalga oshirilayotir va ular quyidagi ob'ektiv zaruratga bog'liq holda sodir bo'lmoqda:

- mehmonxonalarning mehmonlar bilan bandligining barqarorligini ta'minlash. Shu sababdan har bitta mehmonxona to'rining asosida o'zining bronlashtirish tizimi mavjud bo'lib, ular birinchi navbatda mazkur mehmonxonalar to'riga kiradigan mehmonxonalarga xizmat qiladi;
- sifatli mehmonxona xizmatlarini shakllantirish.



Ular qator omillarga - inter'erni bezash, jihozlar sifati, xodimlar malakasi, mijozlar va ularning mulklari xavfsizligini ta'minlashga bog'liq. Barcha etakchi mehmonxonalar o'zlarining binolarni jihozlash normativ va standartlari, shuningdek xizmat ko'rsatish texnologiyalari va standartlariga ega.

Demak, qabul qilingan mehmonxonalar normativ va standartlari muvofiqlikni ta'minlash maqsadlarida qudratli markazlashtirilgan ko'plab ta'minotchi tashkilotlar, jihozlar va mebellarni ishlab chiqarish va ta'minlashga ixtisoslashgan korxonalar barpo etilgan. Mehmonxonaning mehmonlar bilan bandligini oshirishga intilish, yangi mijozlarni izlash va mavjudlarini saqlab qolish. Bular mehmonxonalarni bozor, mijoz, raqobatchi otellar, ta'minotchilar va boshqalarini har tomonlama tahlil qilishga, faol reklama va sotish siyosatini olib borishga majbur qiladi, ular esa katta moliyaviy, axborot va inson resurslaridan foydalanishni talab qiladi

Adabiyotlar

1. O'zbekistonda aholiga xizmat ko'rsatish sohasi va turizm: rivojlanish muammolari va istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Maqolalar to'plami. 2016 yil 6 oktyabr



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sayidova Gulnoza Utkirovna
Maxmudova Madinabonu Latifovna
Navoiy viloyat Ko'rish imkoniyati cheklangan
bolalar uchun ixtisoslashtirilgan Davlat ta'lif
muassasasi Boshlang'ich sinf o'qituvchilari
Telefon : +998(94)3707767
+998(91)3368162

Annotatsiya. Boshlang'ich sinflarda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish.

Kalit so`zlar. Axborot, kommunikatsiya, innovatsion texnologiya

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lif-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatlari vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va Birinchi Prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixon, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik», - degan fikrlariga javoban ta'lif va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

«Beshinchisi (oltinchisi, yettingchisi ...) ortiqcha» metodi

O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobjiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z(tushuncha, fikr) beriladi.

O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo'llash



mumkin. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi.

Uy hayvonlari: sigir, qo'y, toshbaqa, ot, it.

So'ng bu so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: Ot - insonning eng ishonchli do'sti.

O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobjiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

«Videotopishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rini va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o'quvchilarga milliy an'analarimiz, urchodatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi.


Navro'z uduumlari (foydalanish uchun matnlar)

Navro'z kuni odam ota-onasi, yaqin kishilari bilan diydorlashadi. Ginali odamlar Navro'z kuni yarashadi.

Ba'zi joylarda esa Navro'z kunlarida paydo bo'lgan kamalakka qarab yerga suv sepiladi. Shunday qilinsa, go'yo yil seryog'in va barakali bo'lar ekan.

Navro'z kunlari bog'dagi o'rik daraxtlariga arqon solib arg'imchoq yasaladi. Qiz-juvonlar yig'ilishib, navbatma-navbat arg'imchoq uchadilar. Navro'zda arg'imchoq uchsa bir yillik gunohi to'kiladi deyilgan.

Bu metodni 2-sinfda o'quvchilarning unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini sinash, uni mustahkamlash maqsadida ham qo'llash mumkin. Masalan, ekran orqali unli tovushlar ko'rsatiladi. Galma-galdan shu tovush bilan boshlanadigan so'zlarni ifodalaydigan rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar rasmlardagi narsa, buyum nomlarin daftarlariiga yozadilar. Bunda o'quvchilarning xotiralari mustahkamlanadi.



Namuna: Unlilar



STEAM YONDASHUVINING TA'LIM VA TA'LIMGA BO'LGAN QARASHIMIZNI O'ZGARTIRISHDAGI AHAMIYATI.

Jumaniyozova To'tijon Madaminovna
Xorazm viloyati XTXQTMOKHM
Katta o'qituvchisi.

Bobojonova Tojigul Xudayberganovna
Xorazm viloyati Yangiariq tuman
Az-Zamaxshariy nomli 11-IMI fizika fani o'qituvchisi.
Tel: 99-967-29-77

Annotatsiya. STEAM ta'lifi texnologiyasi o'quvchida amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: tabiiy fanlar, texnologiya, tasviriy san'at, layoqat, samaradorlik, amaliyat, integratsiyalashuv, iqtidor, strategik maqsad, zamonaviy dars.

STEAM ta'lifi texnologiyasi tabiiy fanlar, texnologiya, tasviriy san'at, matematika fanlari asosida o'quvchilarni o'qitish metodikasi bo'lib, o'quvchida amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunda fanlarning o'zaro uyg'un holda yozilgan o'quv dasturlari bir-birini to'ldiradi va birgalikda o'quvchida yaratuvchanlik layoqatini hosil qiladi. STEAM ta'lifining rivoji tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya), texnologiya, tasviriy san'at, matematika fanlari dasturlarining mazmun-mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligining ta'minlangani hamda o'quvchilarda shakllanishi zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarining aniq belgilanishi bilan bog'liq. Zamonaviy ta'lif uslubini rivojlantirish maqsadida Xalq ta'lifi vazirligi qoshidagi Respublika ta'lif markazida har bir fan yo'nalishlari bo'yicha ishchi guruhlari shakllantirildi. Olimlar, ekspertlar, o'qituvchi va metodistlardan iborat jamoalar STEAM ta'lifi yo'nalishida ilg'or tajribalarni o'rganib, uni rivojlantirish yuzasidan izlanishlar olib borishmoqda. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'lifi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lif tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

STEAM ta'lifining asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyat nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sind devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatajilar. Ular olgan bilimlarni o'zları "uqib oladilar".

STEAM ta'lif muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas.

STEAM yondashuvi bizning ta'lif va ta'lifga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lif vazifasini tashkil etadi, ya'ni. bu butun ta'lif tizimi nimaga intilishini.

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.

So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi



muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'qitadigan bilimlari va mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo'qmi deb o'yashlari kerak. O'zingizning g'oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi.

Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O'sha haqiqatda ishlatalishi mumkin bo'lgan bilimgina haqiqatan ham qadrlidir. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi – Massachusetts Texnologiya Instituti. Ushbu dunyo universitetining shiori "Mens et Manus" (Aql va qo'l). Massachusetts Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi.

Yaqin kelajakda dunyoda va shuning uchun O'zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo'ladi.

Uzoq kelajakda biz tabiiy fanlar bilan birlgilikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga ega bo'lamiz, ayniqsa bio va nanotexnologiya mutaxassislariga katta talab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi, qo'llanma, Toshkent, 2019 yil.
2. PISA 2015 Released Field Trial cognitive items .
3. Nurillayev B.N., Tillaboev A.M., M.Yu.Atayeva., S.S.Jumanazararov. Fizika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua // T.: 2017.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ЗО-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(10-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000